

O'ZBEK ADIBALARI IJODIDA AYOLLAR OBRAZINING BADIY TALQINLARI

Bozorova Dilovar Bahodirovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli vakillari Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova va Jamila Ergasheva asarlarida ayol obrazi, uning ruhiy olami va ijtimoiy hayotdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda ayol xarakterining gender tengligi va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangi qirralari, ayniqsa, "Mashaqqatli hayot so'qmoqlari", "Javzo" va "Qir ustidagi ayol" kabi asarlar misolida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tarixiy va zamonaviy obrazlar orqali o'zbek ayolining qat'iyati va oiladagi o'rni badiiy talqin etiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, ayol obrazi, badiiy psixologizm, gender tengligi, Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva, tarixiy roman, ruhiy tahlil.

Abstract: This article analyzes the image of a woman, her spiritual world and her place in social life in the works of prominent representatives of modern Uzbek literature Zulfiya Kuroloy kizi, Risolat Haydarova and Jamila Ergasheva. The study examines the new aspects of the female character that have emerged as a result of gender equality and social changes, especially on the example of such works as "Hardly Paths of Life" ("Mashaqqatli hayot so'qmoqlari"), "Gemini month" ("Javzo") and "The Woman on the Hill" ("Qir ustidagi ayol"). Also, the determination of the Uzbek woman and her place in the family are artistically interpreted through historical and modern images.

Keywords: Uzbek literature, female image, artistic psychology, gender equality, Zulfiya Kuroloy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva, historical novel, psychological analysis.

Bugungi kunda butun dunyoda ayollarga bo'lgan e'tibor, ularning huquqiy madaniy-maishiy turmush darajasini oshirish, qizlarning maktablarda ta'lim olishlarini bir maromda yo'lga qo'yishga qaratilgan sa'y-harakatlar jadal sur'atlar bilan rivojlanib boryapti. O'zbek adabiyotida ham ayollar huquqi masalasi ko'p yillardan buyon e'tibor markazida turadi. O'zbek adabiyotida ayol adibalar: Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergashevalar romanlaridagi ayol obrazi muammosining ko'tarilishi o'zining o'chmas ruhiy hodisasi bo'ldi.

Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqqatli hayot so'qmoqlari", "Mashaqqatlar girdobi" "Armon asirasi", Risolat Haydarovanning "Javzo", Jamila Erashevaning "Qir ustidagi ayol" kabi asarlari ayol ruhiyati va uning tuyg'ulari ifodasi o'laroq maydonga

kelgan. O'zbek adabiyotiga kirib kelgan ayol ijodkorlar ham o'z asarlarida yangi ayolning xarakter xususiyatlarini namoyon etuvchi obrazlarni yaratdilar. Ular qanday yo'nalishda ijod etishlaridan qat'i nazar roman va qissa hikoyalarida ayol xarakterining gender tengligi masalasi natijasida yuzaga kelgan yangi xususiyatlarini gavdalantirdilar.

O'zbek adibasi, taniqli ijodkor Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub "Mashaqqatli hayot so'qmoqlari" romanida [5] ayol qalbi, ko'ngil rozlari, baxt-u kamoloti, orzu-intilishlari, ularning jamiyatda, oilada tutgan o'rni badiiy talqin etilgan. Darhaqiqat, o'zbek ayolining qat'iyati, mehnatsevarligi, oilaparvarligi, bolalarga mehri hamda ayol ko'nglining sir-asrorlari xususida gap boradi. Asar qahramonlari hayot hodisalarini yangicha talqin qilib, bugungi kun kishilarining qarashlarida xos bo'lgan odamgarchilik, mehnatsevarlik, saxovatpeshalik, halollik singari tushunchalarni targ'ib etadi. Adibaning "Armon asirasi" romanida millat tarixi taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichidagi ulkan ijtimoiy voqealar, siyosiy evrilishlar emas, balki o'z mavjudligini ta'minlashga-da nochor, kunini ko'rishga zo'r berib urinayotgan, ammo shuni ham uddalay olmayotgan kishilarning ayanchli taqdiri tasvirlangan. Shuningdek, mazkur asarda favqulodda holatga tushgan odamlarning tarang ruhiy holatlari, shu asnoda ularning tabiatida ro'y bergan hissiy ma'naviy o'zgarishlar mahorat bilan ko'rsatilgan. Jumladan, asarda yo'qchilik tufayli o'zbek ayolining o'zidagi ezgu sifatlardan ayrilib borish jarayoni ta'sirli aks ettirilgan. Ma'naviyat juda yuksak tushuncha, lekin u o'zgarmas va turg'un hodisa emas. Odamdagi ma'naviy sifatlar hayotning o'zida, uning ta'sirida shakllanadi, o'zgaradi, yuksaladi. Romanda to'g'ri yo'lga qo'yilmagan hayot odamning moddiy holatigagina emas, balki ma'naviy-axloqiy sifatlariga ham salbiy tasir ko'rsatishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Jamila Ergasheva [2] ham bugungi odam va uning o'ziga xos ruhiy dunyosini qiziqarli va o'ta qaltis voqealar tasviri asnosida ko'rsatishga qaratilgan qissalari bilan tanilgan yozuvchi. Adibaning "Ajdarko'l", "Intiqom", "Tanazzul", "Yopiq derazalar" singari o'tkir syujetli, o'quvchi diqqatini o'ziga mixlab oladigan to'rt qissasi chop etilgan. Yana, "Qir ustidagi ayol" ("Fitna" ssenariy) romani o'quvchi dunyosiga kirib bordi. Adibaning asarlarida ezgulik va yovuzlikning inson ruhiyati va taqdiridagi izlari keskin ziddiyatlar asnosida aks etiriladi.

Risolat Haydarovanning "Javzo" romanida [4] temuriylar davridagi Xadichabegim, Muzaffar Mirzoning suyuklisi Qorako'zbeqim kabi ayollar obrazi yoritilgan. Ushbu asarda ham o'zbek romanchiligida yaratilgan ayollar obrazi ruhiyatining badiiy talqini va bu obrazning poetik takomili muammosi yuzasidan o'tkazilgan tahlillar o'zbek nasrida alohida hodisa ekanligi isbotlangan. "Javzo" asarida ayollar obrazi e'tibor jihatdan har qanday badiiy asar voqeligini harakatga keltiruvchi muhim omillardan biri. Bizningcha, adiba asarlarida ayol obrazi bilan milliy qadriyatlar uyg'unligi

hamda qahramon ruhiyati talqini tushunchasi ham ana shu estetik kategoriyaning bir qismi hisoblanadi. “Javzo” asarida Qorako‘zbekim, Mo‘g‘ul xonim, Xon oyim, Xadichabegim, Opoqbegim, Ulug‘bibi, Gulnurbegim, Ganjina, O‘g‘ilbibisi singari faol va rang-barang ayol obrazlari uchraydi. Yozuvchi ularning tashqi portretini chizish orqali ichki ruhiy olamiga kirishga, ayol ruhiyati manzaralarini tasvirlashga intiladi. Xususan, Qorako‘zbekimning onasi Husayn Boyqaroning sevimli singlisi tilidan: “...suyanchig‘i bo‘lmagan ayolning peshonasi sho‘r bo‘lgay. Xadichabegimning Sulton Husayndek suyanchig‘i bo‘lgani uchun ham peshonasi yarqiroqdur...” degan fikri haqiqat ekani bilan alohida e‘tiborni tortadi. Xususan, o‘tmishda saroy ayollari ichida shohning nazariga tushish va suyuqlikka aylanish oliy baxt edi. Mana shunday baxt va omad Xadichabegimga inom etilgan edi. Har bir davrda ham ayolning baxt-u saodati sevimli yori, tog‘dek suyanchig‘i borligida va kimgadir kerak ekanligini his qilishidadir.

Tarixda Xadichabegim o‘z manfaati yo‘lida har qanday qabihlikdan tap tortmagani aytiladi. Ayniqsa, u o‘z farzandi Muzaffar Mirzoning taxt tepasiga kelishi yo‘lida har qanday to‘siqlarni engib o‘tishga, hatto Sultonning eng sevimli nabirasi, Alisher Navoiyning iste‘dodli shoir shogirdi bo‘lmish Mo‘min Mirzoning bu dunyodan erta ko‘z yumishiga sababchi bo‘lgan.

Romanda tarixiy voqealar Xadichabegim, Qorako‘zbekim, Shayboniixonning ayollari Xon oyim, Mo‘g‘il xonim, Xonzodabegim singari ayollar qismati, ularning shaxsiy hayoti bilan bog‘lab ko‘rsatilgan. Adiba Risolat Haydarova ayol ijodkor sifatida ayol obrazlarning ruhiy olamini chuqurroq idrok etgancha yorita olganligini alohida ta‘kidlash mumkin. Bu haqda N.Ashurova ham ta‘kidlab o‘tgan. [1]

Xulosa qilib aytganda, ayol oilaning baxtu-iqboli, kelajak avlod davomchisi. Ayoli baxtli elning kelajagi ham porloq bo‘lishi ayni haqiqat. Adibalarimiz Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva asarlarida ham bugungi kun ayollarining turmush-tarzi, orzu maqsadlari, ruhiyati, intilishlari aks ettirib berilgan. Har bir asarlarida ayol dard-u tashvishi, iztirobi, quvonch-u shodligini mahorat bilan ifodalagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashurova N. (2022). Tarixiy romanlarda aëllar obrazi tasviri. <https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5534>
2. Ergasheva J. “Ajdarko‘l” (qissa). <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/jamila-ergasheva/jamila-ergasheva-ajdarkol-qissa/>
3. Эшматова Ю. Истиклол даври ўзбек қиссачилигида аёл руҳиятининг бадий талқини: Филол. фан. фалсафа. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 137 б.

4. Haydarova R. Javzo. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – 273 b.
5. Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari. – Toshkent: Read book, 2024. – B.576.
6. Bakhronovna, R. G., & Saidaxmedovna, O. R. D. (2024). Renewal of Artistic Movements in Modern Poetry. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 186-192.